

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



O'ZBEK TERMINOLOGIYASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 120000 - Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019-yil 47-08-4 sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4.40 dagi 892 sonli buyrug'ining 2 ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat til va adabiyot universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Dadaboev H. – ToshDO'TAU “O'zbek tilshunosligi” kafedrası professorı, f.f.d.

Abdushukurov B. – ToshDO'TAU “O'zbek tilshunosligi” kafedrası professorı v.b., f.f.d

Taqrizchilar:

Omonov Q. – ToshDShI Sharq filologiyası fakulteti dekani, f.f.d., dots.

Sobirov A. – ToshDO'TAU “Leksikografiya va dialektologiya” kafedrası mudiri, f.f.d., prof.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat til va adabiyot universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019-yil “1 ” 07 dagi 11-sonli bayonnomasi).

A. Sobirov

Q. Omonov

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

O'zbek terminologiyasining nazariy asoslari, uning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalarda terminologiyaning maxsus ilmiy-texnikaviy ma'nolarni ifodalovchi termin yoki so'z birikmalari tizimi, uning muayyan adabiy til so'z boyligida albatta mavjudligi, leksikaning ajralmas bir qismi ekanligi, terminlar bilan leksika orasida farq borligi xususida bilim va ko'nikmalar hosil qilish, terminlar shakllanishida intralingvistik va ekstralingvistik omillarning roli, terminlarning struktur-grammatik qurilishi qatlamlari, hosil bo'lish yo'llari, terminlar tarkibidagi leksik-semantik jarayonlar, terminlarni tartibga solish, muvofiqdastirish, terminologik tadqiqotlar, terminologik lug'atlar borasida ma'lumot berish fanning muhim vazifalaridan biridir. O'zbek tili terminologiyasining bir necha yuz yillik shakllanish va taraqqiyot dinamikasini kuzatish, o'zbek tili leksik boyligida sohaviy terminlar o'rni va ularning lisoniy xususiyatlari, terminologiya va terminologik leksikaning umumadabiy leksika bilan azaliy munosabati mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

"O'zbek terminologiyasi" fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2- va 4-kurslarda o'qitilishi maqsadga muvofiq. "O'zbek terminologiyasi" fani gumanitar fanlar turkumiga kiradi.

II. Fanning maqsad va vazifalari

Bugungi kunda birinchi navbatda, fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o'ta muhim tarmoqlarda o'zbek tili o'zining haqiqiy o'rnini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug'atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish oldimzda muhim vazifa bo'lib turganini qayd etish lozim". Mazkur vazifadan kelib chiqqan holda fanni o'qitishning maqsadi terminologiya sohasining predmeti, maqsadi va vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masallarning mazmun-mundarijasini belgilash, o'zbek terminologiyasining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili, hozirgi o'zbek tili va mustaqillik davri o'zbek terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishiga turki bo'lgan ijtimoiy shart-sharoit va omillar, terminlar tizimining taraqqiy etishida o'zbek tili qatori boshqa tillarning salmoqli o'rni, terminlarning yasalish qoliplari, terminologik izlanishlar, istiqlol yillari o'zbek terminologiyasida yuz bergan jarayonlar haqida ma'lumot berishdan iborat.

Fanning vazifalari:

"O'zbek terminologiyasi" fanining vujudga kelishi va rivojlanishi;

- jamiyatda ro'y beradigan har qanday o'zgarishlarning terminologiyada yaqqol ifodasini topishi;
- o'zbek terminologiyasi tizimining dastlab qadimgi turkiy til bitiklarida ko'zga tashlanishi;
- eski turkiy til va eski o'zbek tilida terminlarning miqdor va sifat jihatidan o'sib borishi;
- terminlarning hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zgarishlarga uchrashi;
- terminologik tizimning sof turkiy (o'zbekcha) hamda o'zlashma qatlamlari;
- terminlarning struktur-grammatik qurilishi haqida bilim berish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- "O'zbek terminologiyasi" fanining vujudga kelishi va rivojlanishi, jamiyatda ro'y beradigan har qanday o'zgarishlarning terminologiyada yaqqol ifodasini topishi haqida **bilimga** ega bo'lishi;
- o'zbek terminologiyasi tizimining dastlab qadimgi turkiy til bitiklarida ko'zga tashlanishi, eski turkiy til va eski o'zbek tilida terminlarning miqdor va sifat jihatidan o'sib borishi to'g'risida **ko'nikma**ga ega bo'lishi;
- terminlarning hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zgarishlarga uchrashi, terminologik tizimning sof turkiy (o'zbekcha) hamda o'zlashma qatlamlari, terminlarning struktur-grammatik qurilishi haqida **malakaga** ega bo'lishi kerak.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-modul. O'zbek terminologiyasining nazariy asoslari

1-mavzu. Termin va terminologiya

Termin va terminologiya. Termin so'zining interpretatsiyasi. Termin va nomenklatura. Terminologiya fanining vujudga kelishi. Terminlarning umumiste'mol so'zlardan farqli ravishda doim maxsus tushunchalarni ifodalashi. O'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari. O'zbek tili so'z boyligida sohaviy terminlar va ularning til xususiyatlari. O'zbek terminologiyasi shakllanishining uch bosqichi. O'zbek terminologiyasining ko'hna manbalarda aks etishi. Soha terminologiyasining o'zbek tili lug'at fondidagi o'rni.

2-mavzu. O'zbek terminologiyasining leksik-genetik xususiyatlari

O'zbek terminologiyasining shakllanish manbalari. O'zbek terminologiyasi tizimida qadimgi qatlamning o'rni. Terminologik leksikaning umumadabiy leksika bilan munosabati Umumadabiy so'zlarning terminologiyaning shakllanish va rivojlanishidagi roli. Terminologiya tarqiyotida sheva elementlarining o'rni. O'zbek terminologiyasining o'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangani.

2-modul. O‘zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari

1-mavzu.Qadimgi turkiy til terminologiyasi

Qadimgi turkiy tilga xos toshbitiklar matni leksikasidagi terminlar tizimi: ijtimoiy-siyosiy, harbiy, anatomik, tibbiy terminlar, tijorat, savdo-sotiq terminlari, zoonimlar, astroponim(kosmonim)lar kabi. Qadimgi turkiy til terminologiyasidagi o‘z va o‘zlashgan qatlam.

2-mavzu.Eski turkiy til terminologiyasi

Qoraxoniylar davri yozma manbalari leksikasidagi terminlar tizimi. Matematika, geografiya, falakiyot, tibbiyot, minerologiya, zoologiya kabi aniq fanlar qatori falsafa, filologiya, tilshunoslik, tarixshunoslik, dinshunoslik kabi fan sohalarilarining jadal rivojlanishi oqibatida eski turkiy til ilmiy terminologiyasining tarkib topishi. Eski turkiy til terminologiyasidagi o‘z va o‘zlashma qatlam, tub va derivativ terminlar.

3-mavzu.Eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasi

Eski o‘zbek tili terminologiyasining hosil bo‘lish yo‘llari. Eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasining shakllanish omillari. Uning ichki imkoniyatlar va o‘zlashmalar hisobiga shakllanishi va rivojlanishi. Terminlarning yasalish usullari. O‘zlashmalarning tayyor holda o‘zlashtirilishi, termin yasashdagi ishtiroki.

4-mavzu.XX asr o‘zbek terminologiyasi

XIX asrning 70-yillarida jamiyatda sodir bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlarning o‘zbek terminologiyasiga ta’siri. Terminlarning o‘zbek tili ichki imkoniyatlari va konunlari zamirida voqelanishi. Terminlar tizimining xalq jonli tili hisobiga kengayishi. Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy sohalarga xos chet terminlarning o‘zbek tili terminologik tizimiga ko‘p miqdorda kirib kelishi.

Sobiq sho‘rolar davri o‘zbek terminologiyasi. Fan va texnikaga oid terminlar tizimining shakllanishi. Terminologiya maslalarining sinxron va diaxron aspektida o‘rganilishi. Ilmiy-texnikaviy va boshqa soha terminlarining o‘zbek tiliga kalka qilinishi. Arab, fors-tojik tillariga oid istilohlarning ruscha-baynalmilal terminlar bilan almashtirilishi.

5-mavzu.Mustaqillik davri o‘zbek terminologiyasi

Sobiq sho‘rolar vaqtida eskirgan (arxaik) qatlam sirasiga kirib qolgan bir qator terminlar. “ Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning ahamiyati. Istiqlol davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma’naviy hayotda yuz bergan tub o‘zgarishlarning o‘zbek terminologiyasiga ta’siri. 90-yillar boshida o‘zbek

jamiyatida kechgan puristik harakatning ijobiy va salbiy tomonlari. O'zbek tili terminologiyasida mutlaqo yangi tushunchalarning ifodalanishi. O'zbek terminologiyasi asosan ikki manba: a) o'zbek tilining o'z imkoniyatlari va b) G'arbiy Yevropa tillaridan shiddat bilan kirib kelayotgan ko'pdan-ko'p o'zlashmalar hisobiga yanada takomillashuvi va tarqqiy etishi.

3-modul. Globallashuv davrida o'zbek terminologiyasi

1-mavzu. Globallashuv va integratsiya davridagi o'zgarishlarning o'zbek terminologiyasiga ta'siri

O'zbek terminologiyasining baynalmilal terminlar hisobiga kengayishi. Terminologiyada yuzaga kelgan muammolarni hal etish borasidagi harakatlar. Globallashuv va integratsiya davrida tillararo munosabatlarning terminologiyada aks etishi. O'zlashma terminlarning o'zbek adabiy tili qonunlariga bo'ysundirilishi. Xalq xo'jaligidagi yangi sohalarning o'zbek terminologiyasi rivojidadagi roli. Mustaqillik davri xalq hayotida yuz bergan tub o'zlarishlarining o'zbek terminologiyasi rivojiga ta'siri. O'zbek terminologiyasida mavjud qusurlar. Terminlarning yasalishida faol modellarning o'rni.

2-mavzu. O'zbek adabiy tilida terminlarning yasalishi va leksik-semantik hodisalar

Sifat-terminlar, fe'l-terminlar va qo'shma terminlarning yasalishi. Ismlardan sifat-terminlarning yasalishi. Sifat – terminlarning fe'llardan yasalishi. Fe'l – terminlarning hosil qilinishi. O'zbek terminologiyasi sistemasidagi paradigmatic munosabatlar. O'zbek terminologiyasi sistemasida polisemiya, sinonimiya va antonimiya.

3-mavzu. O'zbek terminologiyasini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar

O'zR Vazirlar Mahkamasi huzurida tuzilgan Atamashunoslik qo'mitasining terminlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish, terminologik lug'atlar tuzishni tartibga solish borasidagi faoliyati (1998-2002). O'zbek terminologiyasining bugungi holati. Terminologiyani tadqiq etish metodlari. Terminologik lug'atlar, ularning mazmun va sifatini aniqlash. Mustaqillik davri o'zbek terminografiyasi. O'zbek terminografiyasining shakllanishi. O'zbek terminologiyasi tizimida arxaizmlarning o'rni. Soha terminologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar. Terminlarni unifikatsiyalash va tartibga solish.

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar o'zbek terminologiyasining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari, omillari, struktur-grammatik qurilishi, qatlamlari, tartibga solish va muvofiqlashtirish masalalarini o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy tahlil orqali yana ham boyitadilar. Shuningdek, darslik va qo'llanmalar as osida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallaridan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop qildirish orqali bilimni oshirish, ilmiy-texnikaviy matn ustida ishlash, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash, test savollari tuzish tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlari.
2. Terminologiyaning umumleksikadan farqi.
3. Qadimgi turkiy til manbalaridagi terminlar tizimi.
4. "Devonu lug'otit turk"dagi terminlarning mavzuiy guruhleri.
5. Qutadg'u bilig"da eski turkiy til terminlari tizimining aks etishi.
6. Eski o'zbek adabiy tili terminlari tizimining Alisher Navoiy asarlarida aks etishi.
7. "Boburnoma"ning eski o'zbek adabiy tili terminologiyasidagi o'rni.
8. Ogahiy tarixiy asarlarida qo'llangan terminlar tizimi.
9. XX asr boshi o'zbek terminologiyasi.
10. O'zbek terminologiyasi tizimining o'zlashma qatlami.
11. O'zbek tili terminlarining struktur-grammatik qurilishi.
12. Qo'shma terminlar, termin - so'z birikmalari.
13. Terminologiyada ko'chimlarning roli.
14. Professional (kasb-hunar) terminlari.
15. Ilmiy-texnikaviy terminlar.
16. Fan sohasi terminlarining o'zbek adabiy tili leksik fondidagi o'rni.
17. Terminologik leksikografiya.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

V. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar terminologik tizim ona tilining butun taraqqiyoti davomida shakllangan hodisa ekanligi, uning paydo bo'lish davri va kelib chiqish manbasining har xilligi, o'zbek tili terminologik tizimining o'z grammatik strukturasi ega ekanligi, ayni chog'da o'zbek va boshqa xalqlar

o'rtasidagi bevosita va bilvosita iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, diniy, madaniy munosabatlar bu xalqlar tillariga ham o'z ta'sirini o'tkazgani, oqibatda muayyan tilga xos leksik-semantik elementlarning ikkinchi bir tilga o'tib, o'zlashib ketish jarayonining voqelanishi haqida ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

Seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbek terminologik tizimining o'ziga xos xususiyati.
2. Terminologik tizimda o'z qatlamning qo'llanish doirasi.
3. Asl o'zbekcha so'zlardan ayni tilga oid affiksalar yordamida yasalgan terminlar.
4. O'zlashmalardan o'zbekcha qo'shimchalar vositasida hosil qilingan terminlar.
5. O'zlashma affiksalar yordamida yuzaga kelgan terminlar.
6. O'zbek terminologik tizimida o'zlashgan qatlamning o'rni.
7. Qadimgi turkiy tildagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar.
8. Qadimgi turkiy til terminologiyasi: sanskritcha, so'g'dcha, xitoycha o'zlashmalar.
9. Qadimgi turkiy til harbiy terminologiyasi.
10. Eski turkiy til terminologik tizimidagi arabcha, forscha-tojikcha o'zlashmalar.
11. Eski turkiy tildagi falakiyot terminlari tizimi.
12. Eski o'zbek tili terminologiyasida mo'g'ulcha o'zlashmalarning qo'llanishi.
13. Eski turkiy til terminologiyasi tarkibidagi tub va derivativ terminlar.
14. Eski turkiy til terminologiyasida harbiy terminlarning o'rni.
15. Eski o'zbek tili terminologiyasining shakllanish omillari.
16. Rus-g'arbiy yevropacha (baynalmilal) terminlarning o'zbek tili terminologiyasiga kirib kelishi.
17. Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e'tibor berish tavsiya etiladi.

VI. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

“O'zbek terminologiyasi” fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va terminologiyaning nazariy masalalarini tahlil qilishda muayyan ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra professor-o'qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib, referatlar va ilmiy ma'ruzalar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaytlar hozirlaydilar.

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzular ustida ishlash;
- o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish metodlaridan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

Mustaqil ta'lim uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1. Terminologiyaning tizim sifatidagi mohiyati.
2. Terminologiya va leksika.
3. Terminlar mohiyati.
4. Terminologiyaning lingvistika ob'ekti sifatida o'rganilishi.
5. Terminologiyaning hozirgi o'zbek tili leksik strukturasi bo'yicha o'rganilishi.
6. Terminologiyadagi o'zgarishlarning umumadabiy tildagi jarayonlar bilan bevosita bog'liqligi.
7. Terminologiyaning fan tili sifatida talqin qilinishi.
8. Noterminlogik leksika.
9. Umumilmiy leksika.
10. Terminologiyaning leksik-genetik tavsifi.
11. Terminologiyaga tayyor holda olingan so'zlar.
12. Maxsus nom sifatida hosil qilingan so'zlar.
13. Terminologiyaning leksik-semantik tavsifi.
14. Terminlar tizimidagi polisemiya.
15. Terminologiyadagi omonimiya.
16. Terminologiyadagi sinonimiya.
17. Terminologiyadagi antonimiya.
18. Terminlarning semantik yo'l bilan yasalishi.
19. Soha terminologiyasini tartibga solishning lingvistik asoslari.
20. Standartlashtiriladigan terminlarga qo'yiladigan me'yoriy talablar.

Izoh: Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga asoslanish, mavzulardan tanlab foydalanish, mustaqil ishni bajarish jarayonida belgilangan ko'rsatmalarga amal qilish tavsiya etiladi.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari Asosiy adabiyotlar

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. - Toshkent, 2019.
2. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. Тошкент, 1977.
3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. - Тошкент, 2017.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Мирзиёев Ш.М. “Жисмоний ва маънавий етук ёшлар-эзгу максалларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир” мавзусида “Қамолоғ” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. Халқ сўзи, 2017 йил.
5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз.-Т.:Ўзбекистон, 2017.
6. Abdushukurov B. Eski turkiy til leksikasi. - Toshkent, 2015.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-1У. - Тошкент: Фан, 1983-1985.
8. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. - Тошкент, 1983.
9. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. - Тошкент, 2002.
10. Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. -Ташкент, 1940.
11. Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке//Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. Ташкент: Фан, 1990. – С. 3-83.
12. Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. - Тошкент: Фан, 2007.
13. Дадабаев Х. Лексико-генетические особенности узбекской терминологии. Лингвист. Илмий мақолалар тўплами У1. - Тошкент, 2015.- С.4-10.
14. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. - Ташкент: Ёзувчи, 1991.
15. Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. Тошкент, 2007.
16. Исмоилов М., Шарапов А. Тарих атамалари луғати. -Тошкент: Akademnashr, 2013.
17. Маҳмуд Кошгарий. Девону луғотит турк. 1-Ш. -Тошкент, 1960-1963.
16. Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. Тошкент, Фан, 2007.
17. Чориев З. Тарих атамаларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Шарқ, 1999.

18. Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. I республика терминология конференцияси материаллари. -Тошкент: Фан, 1986.

19. Ўразбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. -Тошкент: Мухаррир, 2013.

20. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. -Тошкент: Фан, 2002.

Интернет сайтлари

www.literature.uz

www.genhis.philol.ru

www.library.ziyouet.uz

www.lingvo-online.ru

www.globalterminology.com

www.basiccomputerterminology.com

www.tilde.com

www.oxfordhandbooks.com

